

DAVLAT TA'LIM MUASSASALARIDA TARBIYAVIY ISHLARNI SAMARALI TASHKIL ETISH ORQALI O'QUVCHILARNI INKLYUZIV TA'LIMGA TAYYORLASH

¹Dehqonova Muborak G'iyosiddinovna

Ch.D.P.U. Maxsus pedagogika kafedrası o'qituvchisi
muborakdehqonova1994@gmail.com,

²To'raqulova Ditora Feruz qizi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
logopediya yo'nalishi 2-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7384838>

Annotasiya: Ushbu maqolada kar va zaif eshituvchi bolalarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirish orqali ularni inklyuziv ta'limga jalb etish imkoniyatlari sanab o'tilgan. Asosan, tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish inklyuziv ta'limda muhim omil ekanligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kar va zaif eshituvchi bola, tarbiyaviy ishlar, hayotiy kompetensiyalar, inklyuziv va maxsus ta'lim.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog'lom tengdoshlari kabi jamiyat rivojiga hissa qo'shish imkoniyatlariga egadirlar. Biroq bunday bolalar ushbu imkoniyatlarga ega bo'lishlari uchun maxsus tashkil etilgan ta'lim-tarbiya sharoitida rivojlanishi lozim. Ta'lim-tarbiya nafaqat ta'lim maskanlarida, balki oilalarda ham o'z ta'siriga ega bo'lishi bolalarni ma'lum sinfdan so'ng inklyuziv ta'limga jalb etishning muhim shartlaridandir. Afsuski bugungi kunda aksariyat oilalarda kar bolalarga nisbatan avaylash va rahmdillik nuqtai-nazari bilan qarash munosabati ustuvorlik qilmoqda. Mazkur holat kar va zaif eshituvchi bolalarda sog'lom bolalardagi kabi muomala, muloqot, o'z-o'ziga hizmat va boshqa faoliyatlarda ishtirok etish ko'nikmalarining yetarlicha shakllanmasligiga olib keladi. Bugungi kunda barcha bolalar kabi kar va zaif eshituvchi bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish muhim sanalmoqda. Ushbu ta'lim turiga kar va zaif eshituvchi bola qachondan borgani ma'qul? savoliga amalitchilar birovovdan: "Buning uchun kar va zaif eshituvchi bolalarning lug'ati yetarli bo'lishi, og'zaki va yozma nutq malakalari shakllangan bo'lishi lozim"-degan fikrni bildiradilar. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonunining 29-moddasida jismoniy va ruhiy rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar va nogiron bolalar ular uchun maxsus ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari bo'yicha ta'lim muassasalarida o'qish va tarbiyalanish hamda o'z jismoniy, aqliy qobiliyatlari va xohishlariga mos bo'lgan ta'lim olish huquqiga egaligi belgilab qo'yilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqning shakllanishi va shaxsiy sifatning tarkib topishida maxsus ta'lim muassasalaridagi ta'limni sifatli tashkil etish lozim. Kar va zaif eshituvchi

bolalarning ta'limi jarayonida umumdidaktik qoidalar va tamoyillardan tashqari xususiy yondashuvlar ham qo'llaniladi. Bu yondashuvlar o'quvchilarga umumta'lim fanlarini o'zlashtirish imkoniyatini pasaytiruvchi eshitishdagi muammolarni bartaraf etish yoki ularning o'rnini to'ldirish usul va vositalarini ko'zda tutadi. Maxsus ta'lim muassasasida kar va zaif eshituvchi bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun sharoitlar yaratiladi.

M.Rubinshteyn ta'lim maskanining bolaga ta'siri beqiyosligi bois quyidagilarni aytadi: "Zamonviy maktab faqatgina o'qitish, ya'ni bilim berish bilangina emas, balki muassasada ijobiy, tarbiyaviy muhitni yaratishi lozim".

Sog'lom va kar bolalarning rivojlanish xususiyatlari hususida V.I.Fleri shunday deydi: "Kar bola, ochig'ini aytganda, boshqa odamlardan yaxshi ham, yomon ham emas. U ham hamma kabi hissiyotlar uchquniga va albatta rivojlanishda uchraydigan to'siqlarga egadir". Maxsus yondashuvning ahamiyati haqida S.A.Zikov shunday deydi: "Tilni kerakli darajada egallash karlik oqibatlarini yengish, fan asoslarini egallash, maxsus maktabni bitirib chiqqandan keyin eshituvchilar jamoasiga kirishish imkonini beradi".

Olimlarning fikrlaridan ko'rinib turibdiki, kar va zaif eshituvchilar ham sog'lom bolalar kabi serqirra va o'z navbatida o'ziga xosdir. Eng muhimi bu bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni ham inklyuziv ta'lim tamoyillariga yo'naltirgan holda tashkil etish lozim. Kar va zaif eshituvchi bolalarning sifatli ta'lim bilan qamrab olinishida to'g'ri tashxisning ahamiyati kattadir. Tashxisning to'laqonli amalga oshirilishida esa, muammoning kelib chiqishini har tomonlama o'rganish, uning oqibatlarini aniqlash muhim omil sanaladi.

Eshitish darajalari bilan bog'liq ravishda o'quv faoliyati tashkil etiladi. O'quv faoliyatining samaradorligi o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi. Biroq, o'quvchilarning o'zlashtirishlarida turli natijalar aks etadi. Amaliyotda o'qituvchilar bu holatni eshitish muammosining darajasi bilan baholaydilar. Biroq o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarning sabablari turlicha bo'lishi mumkin.

Yu.Z.Gilbux o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni quyidagi pedagogik toifalarini ajratadi:

- umumiy o'zlashtirmaslik (bola nafaqat tilni, balki matematikani o'zlashtirishga ham ulgurmaydi);
- hususiy o'zlashtirmaslik (bola qaysidir fanni o'zlashtirishda qiyinchilik sezadi);
- o'quv faoliyatidan umuman chetda (bolada imkoniyatlar yetarli nomoyon bo'lmagan).

Kar va zaif eshituvchi bolalarning aqliy faoliyati-fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayoni tizimlilik, uzviylik, ketma-ketlik tamoyillariga asoslanadi. Ayniqsa, mazkur toifa bolalar eshitmaganliklari uchun har bir yangi o'quv materialni alohida kichik-kichik harakatlar orqali egallaydilar. Aksincha bo'lsa, ular darsning oddiy passiv ishtirokchisi bo'ladi, xalos. Shu o'rinda P.Ya.Galperin tomonidan ilgari surilgan nazariyani keltirish joizdir. U aytadi: "Bola fikrlash faoliyatini tayyor holda egallamaydi, u aniq bir ketma-ketlikdagi harakatlar yordamida fikrlashga o'rganadi. O'qituvchilarning vazifasi esa, mana shu harakatlarni nafaqat nazorat qilish, balki ular uchun sharoit yaratishdan iboratdir".

Har qanday o'qitish va tarbiyalash vositasi bolaning o'zigagina xos xususiyatlarni inobatga olishi muhimdir. Shuning uchun ham maxsus ta'lim muassasalarida yakka mashg'ulotlarga katta ahamiyat beriladi. Zero, Jan Jak Russoning bolani tarbiyalayotganda unga tabiatdan yuqtirilgan jihatlarni inobatga olish muhimdir degan fikri D.I.Latishinaning "Istoriya pedagogiki" nomli kitobida keltirilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus ta'lim muassasasiga kelgan kunidanoq, oddiy kundalik maishiy hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni egallashga jalb etiladilar. Bu ko'nikmalar oddiy va sodda tuyulsa-da, biroq kar bolalarning ijtimoiylashuvi hamda inklyuziv ta'limga qulay moslashini uchun asos bo'luvchi omillardandir.

Maxsus ta'lim muassasalarida tashkil etiluvchi tarbiyaviy mashg'ulotlarda o'quvchilarda quyidagi hayotiy ko'nikmalar shakllanishi lozim deb hisoblaymiz:

- kiyinishi (mavsumbop, boradigan joy xususiyatiga bog'liq, toza va ozoda, jinsiga to'g'ri keladigan, zamonbop...);

- muomalasi (ona tilida to'g'ri, ravon so'zlash, so'zlashganda suhbatdoshini tinglay olish, o'zgalarning so'zini bo'lmaslik, mavzu doirasida gapirish, nutqida noo'rin so'zlarni ishlatmaslik va x.k.);

- jamoat joylarida o'zini tutishi (qoidalarga rioya qilish, atrofdagilarga halaqit qilmaslik, kattalarga salom berish, atrof-muhitni iflos qilmaslik va x.k.);

- gigiyenik qoidalarga rioya qilish: to'g'ri ovqatlanish, vaqtida dam olish, mehnatda me'yorlarni bilish, zararli odatlar (chekish, spirtli ichimliklar, yoshiga mos bo'lmagan munosabatlar) dan yiroq bo'lish, bo'sh vaqtini to'g'ri rejalashtirish va mazmunli o'tkazish, sog'lom turmush tarzi va tibbiy madaniyat talablariga qat'iy rioya qilish va x. k. larga o'rganishlari uchun tizimli ish, maqsadli yondashuvlar, zamonaviy usul va vositalar, o'qitishning samarali innovasion texnologiyalaridan foydalanish lozim.

Qachonki, yuqorida sanab o'tilgan hayotiy ko'nikmalar kar va zaif eshituvchi bolalarda shakllanmas ekan, ularning inklyuziv ta'limda erkin bo'lishlari va

sog'lom tengdoshlari orasida uyg'unlashib ketishlari qiyin kechadi. Shuning uchun xulsa o'rnida shuni aytish mumkinki, kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning samaradorligi ixtisoslashtirilgan ta'limdan inklyuziv ta'limga o'tishning bir muhim omillaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). LOGOPEDIK MASHG'ULOTLARNI SAMARALI TASHKIL ETISHDA ARTIKULYATSION GIMNASTIKA O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH Tahlili ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 360-365.
2. Гиосиддиновна, Д.М. (2022). ТАЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ИНКЛЮЗИВ ТАЛИМНИ РИВОЙЛАНТИРИШ ВА ТАТБИК ЭТИШ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 340-344.
3. Муборак, Д., и Лобар, С. (2022). МАКТАБГАЧА ТАРБИЯ ЙОШИДАГИ БОЛАЛАРДА НУТКНИНГ КЕЧ РИВОЙЛАНИШИ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 345-349.
4. Муборак, Д., и Фарангис, И. (2022). НУТК КАМЧИЛИКЛАРИНИ ПАЙДО БО 'ЛИШИДА АРТИКУЛЯЦИОН АППАРАТ ХОЛАТИНИ О 'РГАНИШ ЗАРУРАТИ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 366-370.
5. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). 4+ 2 TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH Tahlili ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 389-393.
6. Муборак Д. и Шахноза М. (2022). КАСБИЙ КОМПЕТЕНСИАНИ РИВОЙЛАНТИРИШДА МЕТОДИК ЖАМЛАНМАЛАР ЙИГИШ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 371-376.
7. Муборак Д. и Шахноза М. (2022). КАСБИЙ КОМПЕТЕНСИАНИ РИВОЙЛАНТИРИШДА МЕТОДИК ЖАМЛАНМАЛАР ЙИГИШ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 371-376.
8. Муборак Д. и Шахноза М. (2022). КАСБИЙ КОМПЕТЕНСИАНИ РИВОЙЛАНТИРИШДА МЕТОДИК ЖАМЛАНМАЛАР ЙИГИШ. ТАЛИМ ВА РИВОЙЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2 (10), 371-376.
9. Dehqonova, M., & Najmiddinova, N. (2022). ALOHIDA EHTIYOJGA EGA BO'LGAN BOLALARNING OILAGA MOSLASHISHI UCHUN MUHIM OMILLAR. YANGI O'ZBEKISTONDA MILLIY TARAQQIYOT VA INNOVASIYALAR, 90-92.
10. G'iyosiddinovna, D. M. (2022). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARDA KORREKSION ISHLARNING AHAMIYATI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 475-471.